

## DAVLAT VA JAMIYATIMIZ RAVNAQI UCHUN HAR JIHATDAN RIVOJLANGAN, YETUK SHAXSLARNI TARBIYALASHDA TARBIYACHI KASBining BEQIYOSLIGI.

Sultonova Nilufar

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Maktabgacha va boshlang'ich yo`nalishlarida  
masofaviy ta`lim" kafedrasi stajyor-o`qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada zamонавиј мактабгача та`лим ташкiloti tarbiyachisining maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta`limiga sifatli tayyorlashda tutgan o`rnı va ahamiyoti haqida fikrlar yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Maktabgacha yosh, maktabgacha ta`lim tashkiloti, tarbiyachi – pedagog, pedagogik – kuching, STEAM, seminar-trening.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и значение воспитателя современной дошкольной образовательной организации в качественной подготовке дошкольников к школьному обучению.

**Ключевые слова:** дошкольная молодежь, организация дошкольного образования, воспитатель-педагог, педагогико-усилие, STEAM, семинар-тренинг.

**Annotation:** This article discusses the role and importance of the educator of a modern preschool education organization in quality preparation of preschool children for school education.

**Key words:** Preschool youth, preschool education organization, educator - pedagogue, pedagogic - effort, STEAM, seminar-training.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq yetishmovchiligining asosiy sabablari shundaki, bugungi kunga kelib ota – onalar o'z farzandlariga kam vaqt ajratmoqdalar. Bolalar esa tobora ko`proq vaqtlarini kampyuter o`yinlari, televizor, planshet, telefon va o`yinchoqlar bilan ovvora bo`lib o`tkazmoqdalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o`sirish muammosi hozirgi kunda juda muhimdir, sababi nutqida turli xil buzulishlari bo`lgan bolalarning soni oshib bormoqda. Bolalar nutqining rivojlanishi shaxsiyatning rivojlanishi va barcha asosiy aqliy jarayonlar rivojlanishi bilan bog`liqdir. Shu sababli ham maktabga tayyorlov guruhi bolalarini nutqini o`sirishda kitobga bo`lgan mehrini oshirish muhim sanaladi. Ana shuni inobatga olgan holda maktabgacha ta`lim tashkilotida kitob yarmarkalari tashkil etish orqali bolalarni ayniqsa, tayyorlov guruhi bolalarini faol nutqiy jarayonga jalp etish mumkin degan xulosaga keldik. Mazkur kitob yarmarkalariga ota – onalarni qanday jalp etish mumkin degan savol paydo bo'ladi albatta. Tarbiyachi o`z

guruhidagi ota – onalar bilan tashkil etadigan ota – onalar majlislarida kichik trening o`yinlar, farzandlar ta`lim – tarbiyasi uchun dolzarb hisoblangan savollarni berishlari orqali tashkil etsa maqsadli bo`ladi. Masalan: quyidagi savollarni beradi;

-O`ylab ko'ring daraxtlar va o`simpliklar, turli qushlar, jonivorlar umuman olganda tabiat bo`lmasa nima bo`ladi? Ota – onalar bu savolga o'zlarining fikr – mulohazalarini aytib o'tishadi.

-Yer sayyoramizda suv bo`lmasa nima bo`ladi? Ota onalar albatta bu savolga suv obi hayot ekanligini, hamma tirik jon borki suvsiz yashay olmasligini bildirib o`tadilar.

-Tasavvur qiling, hayotimizda ertaklar yo`q, hech qachon bo`Imagan ham. Siz ham bolaligingizda ertak eshitmagansiz va o'qimagansiz.Nima bo`ladi? Ota – onalar bolaliklaridagi tinglagan va o`qigan ertaklarini eslashadi.Ertaklar bolalarda ijobjiy hissiyotlar,ezgu his tuyg'ularni tarbiyalashini aytishadi.

- O`ylab ko'ring, kitob umuman yaratilmagan nima bo`ladi deya savol beradi tarbiyachi ota – onalarga . Ota – onalar kitob bu hayotimizni yoritguvchi oftob misoli ekanligini, agar kitob bo`lmasa hayotimiz ham zulmatga cho`kishini aytib o`tadilar.

Tarbiyachi shu kabi fikr - mulohazalarni guruhidagi ota – onalardan eshitar ekan, farzandining kelajagiga befarq bo`Imagan holda unga kitob olib berishi keraligini aytib o`tadi.Shuni inobatga olgan holda, mакtabgacha ta`lim tashkiloti jamoasi bolalar uchun kitob yarmarkalari tashkil etayotganligini va unda faol bo`lishlarini alohida ta`kidlab o`tadi.Shundan keyingina ota – onalarning vaqtлari bir kunga belgilanib, kitob yarmarkalari tashkil etilsa, ota – onalar bu jarayonda o`z farzandlarining qiziqishlariga qarab kitob xarid qilishsa, o`ylaymizki, mакtabgacha yoshdagi bolalarning xususan, tayyorlov guruhi bolalarining “Nutq, muloqot, o`qish va yozish malakalari” sohasining “Bolalar adabiyoti janrlarini biladi” deb nomlangan indikatorini oson va qiyinchiliksiz egallashida ko`maklashadi.Va albatta bolalardagi nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda hamda ota – onalarning uyda o`z farzandlariga kitob o`qib berishlariga bu orqali farzandlari bilan vaqtlarini ko`proq o`tkazishga zamin bo`ladi.Va eng muhimi,mакtabgacha yoshdagi bolalarning ayniqsa, 6-7 yoshli bolalarning mакtabga tayyorgarlik monitoringini rivojlanish bosqichlarini bilishda ma`lum darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizdagi ta`lim sohasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy o`zgarishlar sohani tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo`shish, yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob

beruvchi yuqori saviyali, salohiyatli, jismonan sog`lom, manan boy , aqlan rivojlangan yoshlarni yetkazib berish va ta`lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali sifat va samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda. Shu sababli ham prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan ta`lim sohasiga katta e`tibor berilmoqda. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarmog`ini zamon talablari asosida takomillashtirish va ushbu sohani tubdan isloh qilish zamirida kelajagimiz egalarini hech kimdan kam bo`limgan holda ulg`ayishlari va davlatimizga munosib farzandlar bo`lib yetishishlaridek ezgu maqsad mujassamdir. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning ta`lim – tarbiyasiga e`tiborni kuchaytirish talab etiladi. Ana shunday ta`lim – tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish, 6-7 yoshli bolalarni mакtab ta`limiga sifatli tayyorlash bugunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ta`lim faoliyatida olib borilayotgan faoliik markazlarida ishlash esa 6-7 yoshli bolalarni mакtab ta`limiga tayyorlashda ma`lum darajada hissa qo`shadi. Masalan; Syujetli-rolli o`yinlar va dramalashtirilgan markazni olsak, ushbu faoliik markazida sahnalashtirilgan o`yinlarning roli shundan iboratki, ularning yordamida maktabgacha yoshdagi bola badiй obrazni o`ргanadi, rollarni ijro etish ko`nimlari va sahna mashqlari rivojlanadi.

Zamonaviy maktabgacha ta`lim davlat va jamiyatimiz ravnaqi uchun har jihatdan rivojlangan, mehnat faoliyatida o`z tashabbuskorligi bilan boshqalarga namuna bo`laoladigan, muntazam ravishda o`z bilimlarini takomillashtirib boradigan kadrlarni tayyorlashni asosiy maqsad qilib qo`yadi. Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, “Birovni o`qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o`zi har tomonlama barkamol bo`lmog`i shart”. Shu sababli tarbiyachi, pedagoglarning ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratlarini oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilmoqda. Demak,

har jihatdan rivojlangan yetuk shaxs tarbiyasida tarbiyachilarning bilimi, salohiyati, mahorati umuman olganda kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta`lim tashkilotida olib boriladigan ta`lim va tarbiya jarayonida 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarini ajodollar tomonidan to`plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko`nikmalarini o`zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o`zining munosib o`rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida va eng asosiysi mакtab ta`limiga sifatli tayyorlanishida tarbiyachilarning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz. Buning uchun avvalo tarbiyachilarda o`zida yangicha bilim

berish, o`z faoliyatlarida axborot komunikatsiya texnologiyalardan bemalol foydalana olish, o`zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy

faoliyat bilan shug`ullana olish ko`nikmalari tarkib topgan bo`lishi lozimdir.

Zamonaviy maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyachilari hozirgi kunda dunyo ta`lim tizimining eng asosiy urf bo`lgan innovations metodlaridan biri hisoblangan “STEAM” texnologiyasi , “Pedagogik – kouching”, yangi tahrirdagi “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi bo`yicha seminarlar, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev va Vazirlar Maxkamasi tomonlaridan ishlab chiqilayotgan davlatimiz va ta`lim tizimiga oid Qonunlar, farmonlar va qarorlarni o`rganish hamda taxlil qilish yuzasidan davra suhbatlari, maktabgacha ta`lim tashkilotida ta`lim sifatini yaxshilash orqali samaradorlikka erishish, tarbiyachilarning bilim, ko`nikma, malaklarini oshirish bilan 6-7 yoshli bolalarning mакtabga tayyorlarlik monitoringini ko`tarishda natijadorlikka erishiladi. Ana shu jihatlarni inobatga olgan holda maktabgacha ta`lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyachisi ko`proq ochiq mashg`ulotlar tashkil etsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Mazkur ochiq mashg`ulotlarni tashkil etishdan ko`zlangan maqsad oila, mакtab va maktabgacha ta`lim tashkiloti hamkorliklarini mustahkamlash va “STEAM” texnologiyasini maktabgacha ta`lim tashkilotlari ta`lim faoliyatlariga olib kirish orqali ta`lim – tarbiya jarayonida qo`llashda turli xil faoliyatlarni integratsiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash, hamda ushbu “STEAM” texnologiyani “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi bilan uyg`unlikka erishgan holatda mashg`ulotlarni va faoliik markazlarini tashkil etish yo`llarini o`rgatdik, tahlil qildik qolaversa, mazkur ochiq mashg`ulotimiz orqali yangi “STEAM” texnologiyani “Ilk qadam” o`quv dasturi bilan chambarchas bog`lash asosida mashg`ulotlar va faoliik markazlarini tashkil etishning afzalliklari to`g`risida tarbiyachi , ota – onalar hamda o`qituvchilarga ma`lumotlar berdik va ushbu ochiq mashg`ulot haqida ota- onalarning, o`qituvchi va tarbiyachilarning fikr - mulohazalari tinglanadi hamda ular tomonidan ham takliflar va tavsiyalar olinadi. Bu esa o`z o`rnida kelgusida tayyorlov guruhi bolalarini mакtabga tayyorlarlik jarayonida uchrayotgan muammolarni bartaraf etishda bizga yangi rejalarini tuzishda zamin bo`ladi desak adashmaymiz.

Bugungi kunda ta`lim – tarbiya jarayonida zamonaviy ta`lim dasturlari, ilg`or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish orqali bolalarni har tomonlama intellectual, an`naviy va axloqiy, jismoniy rivojlantirishni ta`minlash, mакtabga tayyorlash darajasini oshirish tobora dolzarblik kasb

etmoqda. Aynan shu tomonlarni hisobga olgan holda tajribaviy – eksperiment guruhimiz uchun Pedagogik kouching hamkorlik shakli zarur deb hisobladik. Pedagogik kouching – innovations fikrlaydigan pedagoglarni tayyorlash shakli. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligining 2021 yil 12-iyuldaggi 128-sonli “Maktabgacha ta`lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko`rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to`g`risida”gi buyrug`ini amalda qo`llash jayonida maktabgacha ta`lim tashkilotlarida “Pedagogik kouching” hamkorligini tashkil etish dolzarbdir. Kouching - bu ta`limning ma`nosini tushunishga yordam beradigan, mashg`ulotlarni yaratadigan, motivatsiyani oshiradigan va natijalar uchun javobgarlikni oshiradigan zamonaviy pedagogic hamkorlik usuli. Biz ushbu hamkorlik usulini barcha maktabgacha ta`lim tashkilotining tayyorlov guruhi tarbiyachilar o`z qobiliyatlariga bo`lgan ishonchini saqlab qolgan holda, o`z-o`zini munosib baholashga o`rgatish, kasbini to`laqonli egallash, sohaga oid zarur tajriba va mahoratini rivojlantirish, ta`lim va tarbiyaning zamonaviy usul va uslublarini o`rgatish orqali o`z lavozim majburiyatlarini to`laqonli bajara olish uchun yordam berish va bu bilan 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik monitoringini oshirish maqsadini o`z oldimizga qo`ygan holda hamkorlikda seminarlar tashkil etishni joiz deb hisoblaymiz. Tashkil etiladigan seminarlarda maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyachilarini mehnat jamoasiga moslashtirish va ichki mehnat tartib qoidalari, jamoa shartnomalariga riosa qilish tushunchalarini berish, tarbiyachilarning bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali ta`sir o`tkazish sohasidagi qobiliyatini rivojlantirishga o`rgatish, rivojlanish markazlarini kerakli inventarlar, jihozlar bilan to`g`ri tashkil qilish bilan ta`lim faoliyatlarida samaradorlikka erishiladi. Ushbu seminarlar orqali maktabgacha ta`lim tashkilotining tarbiyachi - pedagoglarining axborot komunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash borasidagi bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun slaydlar, multimedialar, video roliklar tayyorlashga o`rganib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ayniqsa, 6-7 yoshli bolalarga ta`lim faoliyatlarini tashkil etishda axborot komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzallik jihatlari va qulaylik tomonlari haqida tushunchalar beriladi. Va bu kabi o`quv seminarlaridan tarbiyachi – pedagoglari o`z ta`limiy faoliyatlarida axborot komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, ta`limiy jarayonlarini tashkil qilishsa samarasi ijobjiy bo`ladi. Koucher - bu pedagogni yangi bosqichga ko`taradigan va kerakli maqsadlarga erishishda yordam beradigan shaxs. Pedagogik kouching ingliz tilidan olingan bo`lib, eng samarali natijani olish uchun birgalikdagi ijtimoiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatni amalga oshirish tizimidir.

Kouching uslubi – bu pedagoglarni tashkilotning ulkan manbai sifatida qarashidir, bu yerda har bir xodim individual, betakror, tanlov qilishga, mas`uliyatni o`z zimmasiga olishga va qaror qabul qilishga qodir. “Pedagogik kouching” pedagoglarning shaxsiy va kommunikativ rivojlanish tartibini belgilaydi.“Pedagogik-kouching” hamkorligi ularning asosiy ishlariiga nafaqat zarar yetkazmasligi balki, ta`lim-tarbiyaviy jarayonlariga ko`maklashadigan sifatli va innovations tashkil etishda zarur va muhim asoslardan biri bo`lishi kerak. “Pedagogik kouching” hamkorligi maktabgacha ta`lim bo`limining maktabgacha ta`lim bo`yicha yosh va malakali uslubchilari bilan hamkorlikda ishlash, maktabgacha ta`lim tashkilotida turli malaka va mehnat stajiga ega direktor va pedagoglar bilan hamkorlikda ishlash turidir. maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyachilari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev va Vazirlar Maxkamasi tomonidan ishlab chiqilayotgan davlatimiz va ta`lim tizimiga oid Qonunlar, farmonlar va qarorlarni o`rganish hamda taxlil qilish yuzasidan davra suhbatlari ham tashkil etilsa tarbiyachilarning siyosiy bilimlar oshibm mustahkamlanib boradi. Mazkur davra suhbatlarini qiziqarli va tarbiyachi - pedagoglarga oson va xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishligi uchun odatiy usullardan chekingan holda yangicha yondoshib uyushtirish lozim. Bundan tashqari maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyachi - pedagoglarning mantiqiy fikrashi, sohaga va respublikamiz ta`lim tizimiga oid bilimlarini bilish maqsadida “Zakovat” intellektual o`yinlarini ham tarbiyachilar bilan birgalikda tashkil qilinishi muhimdir. Bu bilan tarbiyachi – pedagoglarning mantiqiy fikrash, muammoli vaziyatlardan chiqolishga o`rganish, tafakkurining chuqurlashishi, jamoada o`zini ko`sata olish kabi jihatlarining takomillashishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytgan, 6-7 yoshli bolalarini maktab ta`limiga sifatli tayyoragarlik monitoringini oshirishning o`ziga xos tomonlari mavjud bo`lib, ular 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarining jismoniy, aqliy, axloqiy va psixologik jihatdan maktab ta`limiga tayyoragarligidir. Maktabgacha ta`limning asosiy vazifasi har tomonlama barkamol avlodni maktab ta`limiga sifatli tayyorlashdan iboratdir. Buning uchun tarbiyachining bilim darajasi, pedagogik mahorati, vaziyatni to`g`ri baholay olishi va yangi ped texnologiyalardan foydalana olishi muhimdir.

Mazkur jarayonda esa ota-ona va tarbiyachining o`zaro hamkorliklarining roli benihoya katta. Maktabgacha ta`lim tashkiloti va oila o`rtasidagi o`zaro hamkorlikning yangilik tomonlarining afzallik jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.M.Hamidova va boshqalar. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning kamolotida yangicha yondoshuv va uni targ`ib qilishda jamoatchilik ishtiroki".T: "O`qituvchi" – 2014.
2. "Bolaga yo`naltirilgan ta`lim dasturini tashkil etish" T: "Kvinta print"nashri 2012-yil.
3. "Sifatli maktabgacha ta`lim – bola kelajagining poydevori" T:2014-yil.

Internet saytlari:

- 1.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
- 2.[www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).
- 3.[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz).